



ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNING TABIATGA BO'LGAN MUNOSABATINI TARBIIYALASHNING SAMARALI YO'LLARI

Soliyev Ilhomjon Sobirovich

FarDU pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Turg'unaliyeva Dildoraxon Tursunali qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18711268>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-fevral 2026 yil

Ma'qullandi: 18-fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 20-fevral 2026 yil

KEY WORDS

eshitishda nuqson, ekologik tarbiya, tabiatga munosabat, maxsus pedagogika, vizual metodlar, inklyuziv ta'lim.

ABSTRACT

Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishning samarali pedagogik va psixologik yo'llari yoritilgan. Tadqiqotda maxsus ta'lim sharoitida ekologik tarbiyaning o'rni, vizual-ta'limiy metodlarning ahamiyati hamda amaliy mashg'ulotlar orqali ekologik ongni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarga asosan, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda samarali yondashuvlar taklif etilgan..

Bugungi kunda ekologik muammolarning kuchayib borishi jamiyatning barcha qatlamlarida tabiatga ongli munosabatni shakllantirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Ayniqsa, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ekologik tarbiyasi alohida e'tiborni talab qiladi. Chunki bu toifadagi bolalarning atrof-muhitni idrok etishi asosan ko'rish, sezish va amaliy tajriba orqali shakllanadi. Maxsus pedagogika fanida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda tabiat bilan o'zaro munosabatni rivojlantirish muhim tarbiyaviy omil sifatida qaraladi. Ma'lumki, birlamchi nuqson ikkilamchi nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatidagi o'ziga xoslik ularning umumiy rivojlanishiga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Rus psixologi olim L.Ch. Ivanovning fikricha, nutq tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. Inson nutqsiz, ya'ni til vositalarisiz to'laonli fikrlay olmaydi. Surdopsixologlar L.S. Vygotskiy, R.M. Boskis tadqiqotlariga ko'ra, eshitish nuqsoni bolaning nutqiy rivojlanishiga ta'sir etishi bilan birga, uning atrof-muhitni idrok etish shakllarini ham o'zgartiradi. Bunday o'quvchilar uchun vizual axborot asosiy manba hisoblanadi. Shuning uchun tabiatga bo'lgan munosabatni shakllantirishda ko'rgazmali vositalar va amaliy faoliyat ustuvor ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda maxsus ta'lim tizimida ekologik tarbiyani rivojlantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki tabiatga ongli munosabat nafaqat ekologik bilimlarning majmui, balki shaxsning axloqiy, estetik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihat eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun yanada dolzarb bo'lib, ularning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini rivojlantirish orqali bilish faoliyatini faollashtirish imkonini beradi.

Pedagog olim N.N. Malofeyevning ta'kidlashicha, imkoniyati cheklangan bolalar ta'limida tarbiyaviy mazmun amaliy faoliyat bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilgandagina ijobiy natijaga erishiladi. Ayniqsa, tabiat bilan bog'liq faoliyat turlari eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda kuzatuvchanlik, taqqoslash, umumlashtirish kabi bilish jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning tafakkur faolligini oshirib, ikkilamchi rivojlanish cheklanishlarining oldini olishga yordam beradi. Xorijiy tadqiqotlar Marschark va Hauser (2012) shuni ko'rsatadiki, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ekologik bilimlarni shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

❖ rasmlar, piktogrammalar va videomateriallardan foydalanish;

Tabiat qo'ynida o'tkaziladigan kuzatuv mashg'ulotlari bu metodlar o'quvchilarning tabiatga nisbatan emotsional bog'lanishini kuchaytiradi hamda ekologik mas'uliyatni shakllantiradi. Maxsus ta'lim muassasalarida pedagog o'quvchi uchun asosiy yo'naltiruvchi shaxs hisoblanadi. O'qituvchi tabiat hodisalarini sodda, aniq va ko'rgazmali tarzda tushuntira olishi lozim. Shuningdek, imo-ishora tili, mimika va harakatlar orqali tushuntirish ekologik tushunchalarning oson o'zlashtirilishiga yordam beradi. Mahalliy tadqiqotchi A.R. Rahmonovanning fikriga ko'ra, ekologik tarbiyada izchillik va tizimlilik tamoyillariga amal qilish eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda barqaror ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Xulosa

qilib aytganda, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirish murakkab, ammo nihoyatda muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya jarayonida vizual-ta'limiy metodlar, amaliy faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar hamda individual yondashuvdan foydalanish eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli, mas'uliyatli va ehtiyotkor munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. Defektologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1983.
2. Boskis R.M. Surdopsixologiya. – Moskva: Prosveshcheniye, 1988.
3. Marschark M., Hauser P. How Deaf Children Learn. – Oxford University Press, 2012.
4. Rahmonova A.R. Maxsus pedagogikada ekologik tarbiya. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Defektologiya. -2005. - №3. – s. 67-75.
6. Inklyuziv ta'lim. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Nogironlar uchun xalqaro dastur. – T., 2003. – 156 b.
7. Malofeyev N.N. Spetsialnaya pedagogika. – Moskva, 2010.